


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori:

Sh.T.Ergashev

2024 yil « 3 » 07

**UMUMIY PEDAGOGIKA va PSIXOLOGIYA**  
**fanining**  
**O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	600 000-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	610 000-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	60610200-Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Namangan 2024

<b>Fan/modul kodi</b>	<b>O'quv yili</b>	<b>Semestr</b>	<b>ECTS-Kreditlar</b>	
UPP2304	2024-2025	3	4	
<b>Fan/modul turi</b>	<b>Ta'lim tili</b>		<b>Haftadagi dars soatlari</b>	
Tanlov	O'zbek		4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	Umumiy pedagogika va psixologiya	60 (30m/30s)	60	120

<b>2.</b>	<b>I. Fanning mazmuni</b>			
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – Talabalarda umumiy pedagogik, psixologik bilimlarni shakllantirish. Talabalarni yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi va o'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatlarini o'rganish. Talabalarda bo'lg'usi kasbiy faoliyatida muomala, o'zaro pedagogik, psixologik madaniyat, shaxslararo munosabatlar jarayonida o'zini anglash, jamoada sog'lom ruhiy muhitni yaratishda shaxsning o'rni kabi tushunchalarni shakllantirish.</p> <p>Fanning vazifasi – a) bakalavrlarga o'zlari tanlagan kasbning pedagogik, psixologik mohiyatini anglatish; b) tanlangan kasbning professional yo'nalish sifatidagi jamiyatda tutgan nufuzi va ahamiyatiga xolis baho berishga o'rgatish; v) har bir talabaning tanlangan kasb to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish, boyitish, bunda pedagogik, psixologik metodikalar va testlardan foydalanishga o'rganish; g) kasb etikasi, professional ahloq tushunchalari doirasida tanlangan kasbning murakkab qirralarini jamiyatda barqaror bo'lgan qadriyatlar va ma'naviy mezonlar nuqtai nazaridan tahlil qilish; kasbga sadoqat tamoyillarini belgilash; d) shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zini</p>			

<p>– o'zi kasbiy anglash, kasbiy muloqotning sirlarini anglatish va shu kabilar. Fanda zamonaviy pedagogik psixologiyaga oid bilimlar bilan to'ldiriladi hamda amaliy jihatdan bakalavrlarda kasb haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Hozirgi zamon psixologiyasining predmeti, maqsadi va vazifasi.</b></p> <p>Psixologiya fanining jamiyatda tutgan o'rni, dolzarb vazifalari, professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojning dolzarbligi. Psixologiya predmeti haqida tushuncha. Psixik hodisalar. Buyuk mutafakkirlarning ruhiy hodisalar haqida qarashlari. Fanlar tizimida psixologiyaning o'rni. Psixologiya tarmoqlari. Hozirgi zamon psixologiyasining maqsadi, vazifalari va ahamiyati</p> <p><b>2-mavzu. Psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari</b></p> <p>Psixologiyasining tadqiqot metodlarining klassifikatsiyasi, genetik metodlar, praksimetrik metodlar, psixometrik metodlar, eksperimental metodlar, rangli assotsiativ test, kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, varaqalar, testlar, tarjimai hol, eksperiment, mehnat mahsulini tahlil qilish va boshqalar.</p> <p><b>3-mavzu. Faollik. Faoliyat va uning turlari.</b></p> <p>Faollik va faoliyatning turlari. Ehtiyojlar faollik manbaidir. Faoliyat va uning maqsadlari. Kasb tanlash motivlari. Motivatsiyani boshqarish masalalari. Kasbiy motivlarni shakllarini shakllantirish. Motiv turlari. Kasb tanlashga yo'llashning psixologik mohiyati.</p> <p><b>4-mavzu. Shaxs va muloqot</b></p> <p>Shaxsning biogenetik va sotsiogenetik nazariyalari. Shaxs faolligi. Shaxsning kasbiy shakllanishi determinatsiyasi. Shaxsning kasbiy rivojlanishning bosqichlari. O'zini-o'zi shakllantirishdagi roli. Shaxsning intilishlari darajasi. Shaxsning psixologik muhofazasi. Muloqot va uning turlari.</p>
--

#### **5-mavzu. Shaxsning bilish jarayonlari diqqat hamda sezgi**

Shaxsning bilish jarayonlari haqida umumiy tushuncha berish. Diqqat xususiyatlari: uning ko'lam, hajmi, bo'linishi, ko'chishi va boshqa sifatleri. Kasbga oid diqqatni o'rganish metodikalari. Diqqatning ruhiy jarayon sifatida o'rganilishi. Sezgining xususiyatlari. Sezgi turlari. Sezgining psixofizikasi. Sezgi haqida tushuncha. Sezgi va informatsiya. Sezgining kishi hayoti va faoliyatidagi o'ri. Sezgilarning sifati va jadalligi. Sezgilarning davomiyligi va muayyan joylarda yuz berish. Eksterotseptiv sezgilar. Interotseptiv sezgilar. Propriotseptiv sezgilar.

#### **6-mavzu. Idrok, xotira va tafakkur**

Shaxsning faoliyatida idrokni rivojlantirish imkoniyatlari va o'ziga xos tomonlari. Idrokni o'rganish metodlari. Idrok xususiyatlari. Appersepsiya. Vaqt, xarakat va fazoni idrok qilish. Idrokning konstantligi. Kasbga yo'llashda idrok qonuniyatlarini hisobga olish. Xotira turlari, xotira jarayonlari. Esda olib qolish shartlari. Xotira tiplari, kasbiy maslahatda xotira qonuniyatlarini hisobga olish. Xotiradagi individual farqlar. Xotiraning shaxs psixik hayotidagi ahamiyati. Tafakkurning kasbiy xarakteristikasi. Tafakkur turlari. Tafakkur xaqida kasbiy tushuncha. Tafakkur operatsiyalari. Tafakkur formalari. Tafakkur xususiyatlari. Tafakkurning individual xususiyatlari

#### **7-mavzu. Kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda hissiy-irodaviy va shaxsiy fazilatlarning o'ri**

Hissiyot to'g'risida umumiy tushuncha. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashishi. His-tuyg'ular va ularning turlari. Iroda aktining tuzilishi. Iroda nazariyalari talqini. Irodaviy fazilatlar va ularni shakllantirish. Irodaviy xarakatlar va irodaviy boshqarish. Irodaviy xarakatning fiziologik tabiati.

#### **8-mavzu. Individual tipologik xususiyatlar. Temperament,**

Individual - tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish. Shaxs kasbiy faoliyatida individual tipologik xususiyatlarni o'ri. Shaxs taraqqiyotining yoshga bog'liq xususiyatlari. Shaxs psixologiyasi va xarakterining yoshga boqliqligi.

#### **9-mavzu. Xarakter, qobiliyat**

Xarakter va shaxs. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish. Shaxs kasbiy faoliyatida individual tipologik xususiyatlarni o'ri. Shaxs taraqqiyotining yoshga bog'liq xususiyatlari. Shaxs psixologiyasi va xarakterining yoshga boqliqligi.

#### **10- mavzu Kishi xayot tarzining yosh davrlari. Xar bir yosh davrining qisqacha tavsifi**

Har bir yosh davrining qisqacha tavsifi. Yosh davrlari psixologiyasi predmeti. Yosh davrlarining rivojlanish boskichlari. Yosh davrlarini tabaqalash nazariyalari. O'smirlik va o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari. Akseleratsiya nazariyalari va o'smirlik yoshi. O'smirlik yoshida shaxs sifatlarining shaqllanishi. «Tarbiyasi qiyin» o'smirlar.

#### **11-mavzu. Pedagogikaning maqsad va vazifalari**

Pedagogik faoliyatning paydo bo'lishi. Pedagogikaning fan sifatida paydo bo'lishi. Pedagogikaning tarkibiy tuzilishi va asosiy tarmoqlari. Pedagogikaning paydo bulish tarixini biladi. Tarbiya, ta'lim, ma'lumot tushunchalari. Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar. Tarbiya va uning mohiyatini biladi. Ta'lim va uning ahamiyati. Ma'lumot va uning turlari. Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar tushunchasiga ta'rif beradi.

#### **12. Sharq mutafakkirlarining kasbiy ta'lim va tarbiyaga oid pedagogik psixologik qarashlari**

Ajdodlarimizning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari va o'g'itlari haqidagi qimmatli ma'lumotlariga ega bo'lishimizda "Avesto"ning o'ri.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida. Abu Rayxon Beruniyning inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlari. Ibn Sinoning mehnatcevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari. XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida inson va uning hayotiga oid qarashlari. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida kasb-hunar haqidagi bilimlar.

**13- mavzu. O'zbekistonda ijtimoiy xayot, ta'lim-tarbiya pedagogik fikrlar.**

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va usullari bu sohada erishilgan ilg'or tajribalar. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Ta'lim turlari va davlat ta'lim standarti.

**14-mavzu. Chet ellarda ta'lim va tarbiyaning pedagogik psixologik jihati**

Chet ellarda ta'lim va tarbiyaning pedagogik psixologik jihati haqida umumiy ma'lumot. AQSH da kasbga yo'naltirish bo'yicha milliy assotsiatsiya tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida. Markazlar tomonidan o'quvchilarning kasbga moyilliklarini aniqlash, ularning iqtidorlilik – intellektual salohiyatlarini o'rganish.

**15-mavzu. Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari. Tarbiyaning umumiy usullari**

Ta'lim qoidalari: Ta'limning ilmiyligi qoidasi, ta'limning tizimli va izchil bo'lishi qoidasi, ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi

- a) ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'lab o'qitish qoidasi
- b) ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi,
- c) ta'limda ko'rsatmalilik qoidasi ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish qoidasi
- d) mustahkam o'zlashtirish va o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish qoidasi.

Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiya usullari. Mashq va o'rgatish, o'z-o'zini tarbiyalash usullari. Rag'batlantirish va jazolash usullari.

**III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

**1-mavzu.** Buyuk mutafakkirlarni psixologiya va ruxiy xodisalar xaqidagi qarashlari

**2-mavzu.** Psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari

**3-mavzu.** Faollik. Faoliyat va uning turlari

**4-mavzu.** Shaxs va muloqot

**5-mavzu.** Psixik jarayonlar: diqqat hamda sezgi

**6-mavzu.** Psixik jarayonlar: Idrok, Xotira. Tafakkur

**7-mavzu.** Shaxsning hissiy-irodaviy va shaxsiy fazilatlarini

**8-mavzu.** Shaxsning individual psixologik xususiyatlar: Temperamentning diagnostikasi

**9-mavzu.** Xarakter, qobiliyat va ularning diagnostikasi

**10- mavzu.** Kishi xayot tarzining yosh davrlari. Xar bir yosh davrining qisqacha tavsifi

**11-mavzu.** Pedagogikaning maqsad va vazifalari

**12-mavzu.** Sharq mutafakkirlarining kasbiy ta'lim va tarbiyaga oid pedagogik psixologik qarashlari

**13-mavzu.** O'zbekistonda ijtimoiy xayot, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

**14-mavzu.** Chet ellarda ta'lim va tarbiyaning pedagogik psixologik jihati

**15-mavzu.** Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari. Tarbiyaning umumiy usullari

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Psixologiya fanining hozirgi kundagi jamiyatda tutgan o'rni</li> <li>2. Psixologiya tarmoqlarining ahamiyati</li> <li>3. Psixologiya tadqiqot metodlarining mohiyati</li> <li>4. Faoliyat muvofaqiyatida interiorizatsiya va ekstriorizatsiya jarayonlarining ahamiyati</li> <li>5. Ehtiyoj va uning turlari</li> <li>6. Faoliyat va uning turlari</li> <li>7. Pedagogika fanining asosiy tushunchalari</li> <li>8. O'rta Osiyoda 14-19-asrlarda ta'lim tarbiya</li> <li>9. Turkiston o'lkasida jadidchilik xarakati va uning namondalari</li> <li>10. Talimning mazmuni va uning mohiyati</li> <li>11. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi</li> <li>12. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi o'rni</li> <li>13. Abu Rayxon Beruniyning inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlari.</li> <li>14. Ibn Sinoning mehnatcevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari.</li> <li>15. Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiya usullari</li> <li>16. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori ekanligi</li> <li>17. Tarbiya jarayonining mohiyati</li> </ol>
<p>3. <b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Talabalarda bo'lg'usi kasbiy faoliyatida muomala, o'zaro pedagogik, psixologik madaniyat, shaxslararo munosabatlar jarayonida o'zini anglash, jamoada sog'lom ruhiy muhitni yaratishda shaxsning o'rni kabi tushunchalarni shakllantirish;</li> <li>- kasbiy faoliyat, kasbiy layoqat kasbiy qobiliyatlar haqida <i>bilishi va ulardan</i></li> </ul>

<p><i>foydalana olishi</i> talaba voqelikni psixologik mushohada etish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ilmiy tafakkur va psixologik tasavvurning uyg'unligini ta'minlash;</li> <li>- mustaqil va zamonaviy fikrlash;</li> <li>- kundalik faoliyatda umumiy psixologik bilimlarni va qoidalarni qo'llay olish</li> </ul> <p><b><i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</i></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talaba o'zlari tanlagan kasbning psixologik mohiyati hamda kasbning professional yo'nalish sifatidagi jamiyatda tutgan nufuzi va ahamiyatiga kasb etikasi, professional ahloq tushunchalari doirasida tanlangan kasbning murakkab qirralarini jamiyatda barqaror bo'lgan qadriyatlar va ma'naviy mezonlar nuqtai nazaridan tahlil qilish;</li> <li>- talaba voqea-hodisalarni pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq qilish, shaxs motivatsiyasi, emotsional va irodaviy sifatleri, individual psixologik xususiyatlari, shaxs va jamiyat orasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlarini aniqlash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
<p>4. <b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash;</li> <li>• Kompyuterli ta'lim va o'qitishning boshqa texnik vositalarini tatbiq etish;</li> <li>• Talabalarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatish;</li> <li>• O'qitishning noanhanaviy metodlarini qo'llash;</li> <li>• Interfaol keys-stadilar;</li> <li>• "Aqliy hujum" metodidan foydalanish;</li> <li>• "Klaster" metodidan foydalanish;</li> <li>• Taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p>5. <b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>

**6. Asosiy adabiyotlar**

1. G'aybullaev N. "Pedagogika" Ma'ruzalar matni. Toshkent. 1999 y. 288 b
2. Karimova V. "Psixologiya" Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2000 y. 307 b
3. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S. Kasbiy psixologiya: Darslik/ Toshkent-2018. 304 b

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har-bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'z.R Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. //Xalq so'zi gazetasi, 2017yil 16 yanvar №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, "O'zbekiston", 2016.250 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017. 275 b
4. G'oziyev E.G'., Mamedov K.K. Kasb psixologiyasi: - Darslik/ Toshkent-2003. 488 b
5. Qodirov K.B. Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jixatlari va kasbiy tashxis: O'quv qo'llanma/ Toshkent-2001. 180 b

**Elektron resurslar.**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

**Xorijiy adabiyotlar:**

1. Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell Publishing Ltd, 2013. - 515 p.
2. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2014. - R.910

7.	<b>Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b>
8.	<b>Fan\Modul uchun mas'ullar:</b> Akbarov B. – Namangan muhandislik-qurilish instituti, dotsenti Ma'murova F. – Namangan muhandislik-qurilish instituti, katta o'qituvchi
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Akbarov S. – NamDU, "Psixologiya" kafedrasida dotsent v.b Ismoilov M. – NamMQI, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida professori